

**O'QUVCHILARINING HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH HUQUQIY
MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING YETAKCHI BO'G'INI SIFATIDA**

Sayitxonova Barchinoy Axatovna

Tarix fani o'qituvchi

Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchi

Axmatqulova Barnoxon O'ktamjonovna

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya.: *Mamlakatimiz fuqarolarini huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir bir qator normative huquqiy hujjatlar qabul qilinib ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Fuqarolarimizning erkin va farovon yashashligini ta'minlashga hizmat qiluvchi ushbu islohotlarning keying bosqichi yuksak huquqiy madaniyatli shaxslarni tarbiyashdir. Buning uchun maktab dargohlarida huquqiy ta'lim va tarbiyani tashkil etishga uyg'un holda yondashib o'quvchilar huquqiy tafakkurini oshirish lozim.*

Kalit so'zlar: *huquq, ta'lim tarbiya, madaniyat, tafakkur, islohot, normative - huquqiy hujjat,*

Fuqarolar erkinligi va farovonligini ta'minlashga hizmat qiluvchi demokratik jamiyat qurishni oldiga maqsad qilgan har qanday davlat ushbu ezgu niyyatga yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalash kerakligini yaxshi biladi. Mamlakat fuqarolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish ularning huquqiy ta'limi va tarbiyasiga bo'lgan e'tibor natijasida vujudga keladi. Huquqiy ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilar huquqiy tafakkurini shakllantirishga erishish mumkin. Bu esa o'z - o'zidan huquqiy madaniyatni shakllantirishga hizmat qiladi. Avvalo huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyat tushunchalariga to'xtalib o'tish lozim.

Huquqiy tafakkur tushunchasi ko'pgina huquqshunos olimlarni qiziqtirib kelgan va bu borada o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan. Misol uchun Odilqoriyev X.T tahrir ostida chiqqan Davlat va huquq nazariyasi kitobida "Avvalo huquqiy tafakkur insonning atrofdagi huquqiy voqelik haqida yuridik kategoriyalar vositasida ijodiy fikrlash, faol aqliy tahlil yuritish qobilyatidir. Huquqiy tafakkur asosini haqqoniy yuridik bilim, jamiyatda huquqiy vositalar orqali hal qilinayotgan vazifalarni nazariy anglangan holda tushunish tashkil etadi. huquqiy tafakkur huquq haqida, jamiyatdagi hodisalar xususida nazariy tahlil asosidamushohada yuritish, ular tub ma'no - mazmuniga yetishga yo'naltirilgan aqliy jarayondir. Bizga ma'lumki inson jamiyatning bir a'zosi sifatida shu jamiyatda belgilangan qonun qoidalarning ishtirokchisi hamdir. Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, huquqiy tafakkur insonni atrofida bo'layotgan voqea hodisalarga huquqiy baho berishi hisobladi. Bu voqea hodisalarda o'zi ishtirok etgan taqdirda ham u o'z hatti harakatlariga huquqiy jihatdan baho bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishidir. Buning uchun esa insondan avvalo huquqiy bilim

talab qilinadi. Huquqiy bilim huquqiy savodxonlik nafaqat huquqiy tafakkurning balki huquqiy madaniyatning ham dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan Rosssiya olimi T. V. Avakyan o'z tadqiqotlarida shunday degan: Huquqiy tafakkurni huquqiy ongdan ajratib bo'lmaydi, subyektiv bo'magan, irratsional boshlangich yo'q deb hisoblaydi va u doimo aqliy tajribalar bilan davom etadi. Intutitiv huquq - huquqiy ong va huquqiy tuyg'u birligining natijasidir.⁴⁸ Ushbu olim huquqiy tafakkurni huquqiy ongdan ajratib bo'lmasligini va ular birgalikda rivojlanishini ta'kidlab o'tgan. Huquqiy ong ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Huquqiy ong huquqiy bilimlarga ega bo'lgandan keyin huquqning mazmun mohiyatini anglash va tasavvurga ega bo'lish ko'nikmasidir.

AQSHlik mashhur huquqshunos olim, professor Neil MacCormick o'zining "Huquqiy tafakkur va huquq nazariyasi" asarida: Huquqiy tafakkur jarayonlariga nisbatan past qiziqish, ehtimol, bu huquq nazariyasining kamroq muammoli tomoni bo'lganligi bilan izohlanishi mumkin. tarixiy nuqtai nazardan, masalan, huquqiy qarorlarni asoslash muammosi va kodifikatsiyalar bo'yicha munozaralar shunchalik jiddiyroq muammolar paydo bo'ganligi haqiqatdir. Nisbatan kam sonli faylasuflar o'z kuchlarini huquqiy tafakkur jarayonlariga bag'ishlaganliklari ajablanarli, chunki yurispridensiyaga kiritilgan barcha hissalar huquqiy tafakkur haqidagi taxminlarni o'z ichiga olishi kerak." - deya huquqiy tafakkur tushunchasi olimlar tomonidan yetarli darajada o'rganilmaganli va buning bir qator sabablarini keltirib o'tgan. Undan tashqari yuridik sohada olib borilgan izlanishlarning tub ma'nosi huquqiy tafakkurga borib taqalishi haqida o'z mulohazalarini bildirgan.

Huquqiy madaniyat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak bu borada X. T. odilqoriyev o'zining Davlat va huquq nazariyasi kitobida quyidagicha ta'rif bergan: "Huquqiy madaniyat deyilganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining habardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularning bajarmagan shaxslarga nisbatan muhosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi.⁵⁰" Huquqiy madaniyat fuqarolarning mamlakatda o'rnatilgan qonunlarni bilishi va unga rioya qilish darajasi hisoblanadi. Qonunlarni bilish huquqiy ta'lim orqali vujudga kelsa unga rioya qilish uchun unda huquqiy tarbiya orqali huquqiy tafakkuri shakllantiriladi. Uning natijasida esa huquqiy madaniyatga erishiladi. Huquqiy tafakkur bilan huquqiy madaniyat o'zaro aloqadorligi va bir birini taqozo etadi. Bu haqda taniqli rus olimi S. V. Kuklin o'z maqolasida: Huquqiy madaniyatning va huquqiy tafakkur bilan aloqasini huquqiy mentalitet orqali o'rnatish mumkin. Bunday yondashuv bilan huquqiy tafakkur ijtimoiy va huquqiy voqelikni o'zlashtirishning o'ziga xos yo'llarini belgilaydigan subyektlarning ma'lum bir doirasi huquqiy madaniyatining asosiy tizim tuzuvchi elementiga aylanadi. Aynan huquqiy tafakkur kasbiy huquqiy madaniyat va ilmiy jamoatchilik madaniyati negizida

yotadi. U yoki bu jamiyatning huquqiy mentaliteti va huquqiy madaniyati huquqiy tafakkurni shakllantiradi va o'z navbatida u tomonidan qayta quriladi.51 - deya asoslab bergan. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tafakkur aholining huquqni qabul qilish darajasidan kelib chiqishi ya'ni huquqiy mentalitet orqali amalga oshirilishiga urg'u bergan.

Fuqarolar huquqiy madaniyatini shakllantirishga e'tibor mustaqillikka erishganimizdan keyin kuchaygan. 1997-yil 29-avgustda „Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi52" qabul qilindi. Undan tashqari 1997-yil 25-iyunda "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholini huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida53" farmon e'lon qilingan va ushbu farmonni amalga oshirish doirasida bir qator ijobiy islohotlar olib borilgan. Huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir eng so'ngi normative - huquqiy hujjatlardan biri bu - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida54"gi farmonidir. Ushbu farmonda bugungi kundagi axoli huquqiy madaniyatini shakllantirishda duch kelinayotgan kamchiliklar va ularning ijobiy yechimiga doir takliflar va yo'l xaritasi ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Odilqoriyev.X.T Davlat va huquq nazariyasi. T. Adolat. 2018. -B.274
2. Авакян, Т. В. Юридическое мышление в правоприменительном процессе : автореф. дис. ...канд. юрид. наук / Авакян Татьяна Владимировна. -Ростов н/Д, 2006. - 18 с.
3. С. В. Куклин. ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА И ПРАВОВОЕ МЫШЛЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ. Вестник ЮУрГУ. Серия «Право». 2017. Т. 17, № 4,С. 80
4. MacCormick, N. Legal Reasoning and Legal Theory, 229 (1978).
5. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori, 29.08.1997. 466-1-sonli. <https://lex.uz/ru/docs/-249352>
6. Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholini huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida. 25.06.1997.PF-1791-son. <https://lex.uz/ru/docs/226874>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ' 'Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida1"gi farmoni. PF-5618-son. 09.01.2019. <https://lex.uz/docs/-4149765>